



JIZZAX VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-aprel






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasid an.

2023- yil 1-aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **7739** tani tashkil etib, Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **107** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **7632** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlarini asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-aprel oyida chakana savdo tovar aylanmasi **2176,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **103,1** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **129,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **109,2** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1403,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **643,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,4** %) tashkil etdi.


	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	2176,7	103,1	129,7	109,2	1403,7	101,4
Jizzax sh	506,3	103,0	67,3	107,4	319,5	101,7
<i>tumanlar :</i>	-	-	-	-	-	-
Arnasoy	52,8	73,9	0,6	73,0	51,6	100,8
Baxmal	256,7	109,0	1,3	90,6	154,7	110,6
G'allaorol	248,6	107,9	7,6	99,3	160,7	109,0
Sh Rashidov	200,3	106,6	4,2	535,4	152,0	104,4
Do'stlik	115,9	100,1	0,7	24,5	78,7	102,4
Zomin	276,0	103,4	44,7	124,2	141,8	98,1
Zarbdor	141,9	100,7	0,7	86,8	89,3	100,9
Mirzacho'l	75,9	105,4	0,5	78,2	44,0	101,8
Zafarobod	38,6	99,7	0,5	69,0	38,1	100,4
Paxtakor	133,1	100,2	0,6	19,3	85,6	103,1
Forish	98,9	102,9	0,7	86,8	68,4	103,0
Yangiobod	31,7	101,3	0,3	67,3	19,3	98,6

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Baxmal (**109,0** %), G'allaorol (**107,9** %), Sh.Rashidov (**106,6** %) va Mirzacho'l (**105,4** %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1403,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **103,3** % ni tashkil etdi. Jizzax viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **64,5** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **9,2** % ga o'sdi va **129,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **6,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Zafarobod (**98,6 %**), Arnasoy (**97,8 %**) va Sh.Rashidov (**75,9 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **6,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Zomin (**16,2 %**), Jizzax shahri (**12,1 %**) va G'allaorol (**3,1%**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Jizzax viloyati	1471,4	100,8
Jizzax sh	2631,1	100,3
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	1097,0	72,8
Baxmal	1536,0	106,7
G'allaorol	1356,4	105,7
Sh Rashidov	843,9	103,9
Do'stlik	1680,4	98,4
Zomin	1569,9	101,1
Zarbdor	1529,0	98,3
Mirzacho'l	1391,0	103,5
Zafarobod	730,3	97,6
Paxtakor	1674,0	98,0
Forish	1019,8	101,3
Yangiobod	1073,9	99,9


2023-yilning yanvar-aprel holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1471,4** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **100,8** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni tumanlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Jizzax shahri (**2631,1** ming. so'm), Do'stlik (**1680,4** ming. so'm) va Paxtakor (**1674,0** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Jizzax viloyati bo'yicha 2023-yilning yanvar-aprel oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **643,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan **101,4** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor(dehqon) va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 310,6 mlrd. so'mni (129,6%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 332,6 mlrd so'mni tashkil etdi (102,7 %).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- aprel oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	643,2	101,4	310,6	129,6	332,6	102,7
Jizzax sh	119,5	104,1	119,5	136,8	-	-
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,6	3,1	0,6	24,8	-	-
Baxmal	100,6	107,0	66,9	147,1	33,7	94,9
G'allaorol	80,2	106,6	16,1	86,5	64,06	111,8
Sh Rashidov	44,1	105,9	7,8	0,0	36,3	125,3
Do'stlik	36,6	101,4	2,9	24,5	33,65	119,7
Zomin	89,5	103,6	42,0	140,6	47,49	110,4
Zarbdor	51,9	100,5	12,3	56,9	39,58	92,3
Mirzacho'l	31,4	110,9	9,7	230,0	21,71	105,7
Zafarobod	-	-	-	-	-	-
Paxtakor	46,9	100,6	19,8	151,3	27,15	102,7
Forish	29,8	103,4	11,7	280,6	18,08	92,8
Yangiobod	12,1	107,5	1,2	153,2	10,87	152,0

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;


– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning aprel oyida viloyatning barcha tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **310,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**21,9** mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	21,9
	Non va non mahsulotlari	10,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	6,4
	Tovuq go'shti	3,5
	Qurilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	2,6
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	2,5
	Tuxum	4,0
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	9,3
	Ziravorlar	4,6
	Tuzlamalar	1,4
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	0,4
	Nooziq-ovqat tovarlari	1,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning aprel oyida, viloyatning barcha tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **63,0** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **21,6** mlrd.so‘m, qo‘y va echkilar – **19,2** mlrd. so‘mni, otlar – **0,9** mlrd. so‘mni, parrandalar – **0,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	21,6
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	11,2
	1 yoshgacaha bo‘lgan yosh mollar	9,8
	Qo‘ylar	16,5
	Otlar	0,9
	Echkilar	2,7
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,2
	Tovuqlar	0,1
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI




2023- yilning yanvar-aprel oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **82,6** mlrd. soʻmga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **103,2** % ni tashkil qildi. Bunda savdo aylanmasining **97,2** % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga toʻgʻri keldi.

	Jami mlrd. soʻm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda	Xususiy tadbirkorlik subyektlari, mlrd. soʻm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	82,6	103,2	80,2	103,1	2,3	105,3
Jizzax sh	33,1	104,5	32,6	104,5	0,5	105,6
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	0,4	101,7	0,3	100,8	0,1	104,8
Baxmal	5,0	105,2	4,8	105,2	0,3	105,0
Gʻallaorol	5,6	101,5	5,4	101,3	0,2	105,1
Sh Rashidov	19,3	102,1	18,9	102,0	0,3	105,2
Doʻstlik	1,9	101,8	1,8	101,6	0,1	105,1
Zomin	5,4	102,7	5,1	102,5	0,2	106,1
Zarbdor	2,6	100,9	2,5	100,7	0,1	105,1
Mirzachoʻl	0,7	102,9	0,6	102,6	0,1	104,8
Zafarobod	0,9	104,1	0,8	103,9	0,1	105,8
Paxtakor	2,5	101,3	2,4	101,1	0,1	104,9
Forish	4,4	102,3	4,3	102,2	0,1	104,7
Yangiobod	0,8	101,2	0,8	101,0	0,0	104,8

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- aprel holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1264,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **85,8** % ni tashkil etdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **420,1** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **74,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi **844,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **92,9** %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Jizzax viloyati	1264,7	100,0
Jizzax sh	200,9	15,9
<i>tumanlar :</i>		
Arnasoy	-	-
Baxmal	695,4	55,0
G'allaorol	25,5	2,0
Sh Rashidov	231,7	18,3
Do'stlik	0,6	-
Zomin	100,6	8,0
Zarbdor	0,2	-
Mirzacho'l	0,1	-
Zafarobod	-	-
Paxtakor	0,3	-
Forish	4,0	0,3
Yangiobod	5,6	0,5


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Baxmal tumani (**695,4** mlrd. so'm), Sh.Rashidov tumani (**231,7** mlrd. so'm) va Jizzax shaxri (**200,9** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **621,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **101,0 %** ni tashkil etdi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **85,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **75,5 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **86,2 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



2023-yilning yanvar-aprel oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **621,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **101,0** % ni tashkil etdi

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **85,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **75,5** %), kichik biznes va mikrofirmalarining tovar aylanmasi **536,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **106,8** %) tashkil etdi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-aprel oyiga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	621,9	101,0	85,8	75,5	536,1	106,8
Jizzax sh	353,9	98,1	23,2	61,3	330,6	102,4
<i>tumanlar :</i>						
Arnasoy	2,2	112,8	0,0	96,1	2,2	112,9
Baxmal	71,6	153,0	56,7	132,8	14,9	365,4
G'allaorol	29,5	107,4	0,1	98,4	29,4	107,4
Sh Rashidov	46,0	122,6	0,1	31,1	45,9	123,0
Do'stlik	23,6	46,7	5,2	16,0	18,4	100,9
Zomin	54,5	108,5	0,1	736,3	54,4	108,3
Zarbdor	2,8	101,6	0,0	135,5	2,8	101,5
Mirzacho'l	15,6	100,9	0,1	94,6	15,5	100,9
Zafarobod	5,7	101,8	0,0	795,3	5,7	101,1
Paxtakor	5,9	99,4	0,1	61,5	5,8	100,9
Forish	9,8	100,1	0,1	61,2	9,6	100,9
Yangiobod	0,9	108,0	0,0	256,6	0,9	105,9



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 72-221-51-26**